O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
_____ O.SH.Bazarov
2022 yil “06” _____

BOSHQARUV JARAYONLARI

FANNING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	**200000**	– Ijtimoiy soha, iqtisod va xuquq
Ta’lim sohasi:	**230000**	– Iqtisod
Ta’limyo’nalishi:	**5230200**	– Menejment (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)

Qarshi – 2022

Tuzuvchi:

Murodova N.U. - "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Xamrayeva S.N. - "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasi mudiri, i.f.d.

Raximov A.N. - "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasi mudiri dots.

Ushbu fan dasturi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining "Biznes va innovatsion menejment" kafedrasining **2022 yil** "21" 06 **dagi** 10 **-son** yig'ilishida muhokamadan o'tgan va "Iqtisodiyot" fakulteti Uslubiy Komissiyasida **2022 yil** "24" 06 **dagi** 11 **-son** yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining **2022 yil** "25" 06 **dagi** 11 **-son** yig'ilishi va institut Kengashining **2022 yil** "28" 06 **dagi** 11 **-son** yig'ilishi qarorlari bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

6. Ergashev R.X., Tursunov I.E., Ravshanov A.D., Qurbonov A.B. Innovatsion iqtisodiyot. Darslik. T.-"Voris-nashriyot", 2020. 448 b.

7. Ганчерёнок И.И., Горбачов Н.Н., Турсунов И.Э., Панжиев С.А. Цифровая экономика: управление информационными ресурсами./ Учебное пособие:/-Т.: "Voris-nashriyot", 2020. 207 с.

Internet saytlari

1. www.gov.uz–O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali
2. www.press-service.uz–O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Matbuot xizmati rasmiy sayti
3. www.mfer.uz–O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investisiya va savdo Vazirligining rasmiy sayti
4. www.UzA.Uz–O'zbekiston milliy axborot agentligi rasmiy sayti
5. www.review.uz – Ekonomicheskoye obozreniyel jurnal
6. www.cer.uz – Iqtisodiy tadqiqotlar Markazining rasmiy sayti
7. www.uzreport.com – biznes axborotlari portal.

Fan (modul) kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
OMM336	2022-2023	6	6
Fan/modul turi	**Ta'lim tili**		**Haftadagi dars soatlari**
Mutaxassislik fani	O'zbek		5

1.	**Fanning nomi**	**Auditoriya mashg'ulotlari (soat)**	**Mustaqil ta'lim (soat)**	**Jami yuklama (soat)**
	Boshqaruv jarayonlari	72	108	180

2

I. Fanning mazmuni.

I. Fan tavsifi.

Mamlakatimizda har tomonlama mukammal va samarali boshqaruv tizimini yaratish bugunki kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotini modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash sharoitida korxonalar va tarmoqlarni samarali boshqarish muhim vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Boshqaruv jarayonlarini samaradorligini oshirish uchun hozirgi menejerlardan yuqori mahorat va menejment fani bo'yicha zamonaviy bilimga va ko'nikmalarga ega bo'lishini talab qiladi. Bu esa boshqaruvchi xodimlarni mutaxasisligi bo'yicha bilimini oshirishga va Boshqaruv jarayonlari sohasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishni taqozo etadi.

II. Fanning maqsadi.

"Boshqaruv jarayonlari" fanini o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad talabalarni, butun dunyo miqyosidagi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalaridagi biznes operatsiyalar va jaroyonlarni samaradorligini oshirishning bazaviy konsepsiya, uslublari hamda oxirgi yutuqlari bilan tanishtirish va shu bilan birga ularni amalda tadbiq etish ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan. Ushbu fan bugungi kunda mamlakatimizni rivojlantirish, yangilash va modernizatsiya qilish bo'yicha tanlangan strategiyani amalga oshirishda biznes jarayonlarni samarali boshqarish, tejamkorlik g'oyasini ilgari surish, xorijiy yirik kompaniyalarning boshqaruvida TQM, JIT, Kayzen, Caban, ABC (Aktiviti Based Costing) konsepsiyalarini qo'llashni tushunishda talabalarni zarur bo'lgan bilimlar bilan qurollantiradi. Boshqaruv jarayonlari fani ishlab chiqarish tizimlarini, ulardan foydalanish va doimiy takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish, mahsulot va xizmatlarni sifatini ta'minlash muammolarini o'z ichiga oladi. U har qanday operatsiyalarni, avvalo mijoz va tashkilotlar uchun tayanch belgilarga ega barcha operatsiyalarni samarali va oqilona boshqarishni o'ziga xos jihatlari bo'yicha yangi bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

III. Ta'lim berish natijalari.

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- boshqaruvga zamonaviy yondashuvlar, tejamkorlik, reinjinering, 5 R, AVS tahlili, Balanced Scorecard, TQM, RPM, JIT tizimi bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni qo'llash va tadbiq etish uslubiyatlari to'g'risida tasavvurga;

- korxonalar faoliyatini tahlil qilish, korxona menejmentini baholash, strategik, taktik va operativ qarorlar qabul qilish, operatsion strategiya ishlab chiqish, yangi mahsulotlarni loyihalashtirish, reinjiniring, sifat menejmenti va benchmarking usullarini qo'llash, biznes jaroyonlarni baholash asosida samaradorlik mezon ko'rsatkichlarini tahlil qilish va ulardan ishlab chiqishni unumli foydalana olish;

- ishlab chiqarish korxonalarida ilmiy asoslangan tadqiqotlar asosida ishlab chiqarish xarajatlarini minimalllashtirishga, yangi mahsulotlarni loyihalashtirishda ishlab chiqarish korxonalarida inovatsion faoliyatni tashkil etish, korxonalarga operatsion strategiya ishlab chiqish, korxonalarga JIT, Kayzen tizimlarini tadbiq etish, biznes jaroyonlarini samarali boshqarish, xodimlarni rivojlantirish, operatsion strategiyani amalga oshirishda yuzaga keladigan muammolar bo'yicha yechimlar qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'ladi.

IV. Ta'lim berish usullari

- ijodiy vazifa
- ta'limning faol metodlari:
  - insho yozish;
  - tahliliy hisobot taqdimoti;
  - taqdimotning video / slaydlarini tayorlash;
  - nashrlarni tayyorlash;
- blits-savolnoma;
- debatlar va munozaralar;
- mulohaza va nazorat uchun savollar;
- amaliy topshiriq.

V. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari).

V.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu. Boshqaruv jarayonlarining predmeti va vazifalari

Boshqaruv jarayonlari tushunchasi va mazmuni. Boshqaruv jarayonlarining rivojlanish tarixi. Boshqaruv jarayonlari va jahon miqyosidagi kompaniyalarda operatsion-qiymat tahlili. Operatsion qiymat menejmenti.

	turli darajadagi testlarni yechish; so'rov o'tkazish.
5	**X. Kreditlarni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni муваффақиятли topshirish.
6	**ADABIYOTLAR.** **Asosiy adabiyotlar:** 1. Umarxodjayeva M.G. "Boshqaruv jarayonlari". Darslik. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti 2014.- 327 b. 2. Пивоваров С.Э., Максимцев И.А., Рогова И.Н., Хутиева Е.С. Операционный менеджмент: Учебник для вузов. Стандарт третьего поколения. -СПб.: Питер, 2011. — 544 с.: ил. - (Серия «Учебник для вузов»). 3. Ричард Б. Чейз, Николас Дж. Эквилайн, Роберт Ф. Якобс. Производственный и операционный менеджмент. Десятое издание. Издательский дом "Вильяме" 2011г.- 704с. 4. Jay Heizer, Barry Render, Chuck Munson, Paul Griffin. Production management. Pearson Education Canada, 2019 - 848 p. **Qo'shimcha adabiyotlar:** 1. SH.M.Mirziyoyev. "2020 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustivor vazifalar haqida Oliy Majlisga Murojaatnomasi".//Xalq so'zi 2020 yil 25 yanvar. 2. "O'zbekiston yanada riojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF -4947 – sonli Farmoni. 3. Yo'ldoshev H.Q., Yusupova D.T. Sifat menejmenti.O'quv qo'llanma.- T.:TDIU, 2019 y. – 270 b. 4. Yo'ldoshev N.Q., Nabokov V.I. Menejment nazariyasi. Darslik.-T:TDIU, 2013-433 b. 5. Yo'ldoshev NQ., Yusupova D.T. Tizimli menejment nazariyasi. Darslik.T.: TDIU, 2019 y. 270 b.

	22. Kayzen metodini tatbiq etishning xorijiy tajribasi. 23. "Lean production" tatbiq etish bosqichlari va xorijiy tajribasi. Mustaqil o‘zlashtiriladigan mavzular bo‘yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3	**VIII. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari.** **Talaba bilishi kerak:** ▪ menejmentning rivojlanish tarixi va zamonaviy konsepsiyalari; menejmentning ilmiy maktablari; boshqaruv va menejment tushunchalari; korxonalar doirasida marketing tizimining mohiyati; marketing xizmatlarining ahamiyati; marketing muhiti tushunchalari xaqida *tasavvurga ega bo’lishi;* ▪ O’zbekistonda boshqaruvning rivojlanishini; menejmentning xorijiy modellarini; boshqaruv mehnatining ta’rifi, xususiyatlari va turlarini; boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etishni; menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilishni; mehnat jamoalarida xodimlarni boshqarishni; nizolarni hal etish yo’llarini; tashkilotlarning asosiy tashkiliy-xuquqiy shakllarini; tashkilotlar rivojlanishidagi zamonaviy tendensiyalarini; marketing konsepsiyasidan samarali foydalanish usullarini; korxonada raqobat muhitini shakllantirishni; marketing sohasidagi meyoriy xujjatlarni; bozorni segmentlash va xaridorlar turlarini aniqlashni; talab, taklif va bozor xajmini aniqlashni *bilishi;* ▪ boshqaruv usullaridan foydalanish; menejment texnologiyasini tashkil etish; boshqaruv jarayoni va vazifalarini belgilash; boshqaruvda axborot va kommunikatsiyalardan foydalanish; tashkilotlarning ichki va tashqi muhitini tahlil qilish; tashkiliy o’zgarishlarni boshqarish; korxona salohiyatini boshqarish; zamonaviy marketing konsepsiyalarini tadbiq etish; bozor konyunkturasini tadqiq etish; tovar siyosatini samarali boshqarish; tovar raqobatbardoshligini oshirish; yangi tovarlarga narx belgilash; marketing kommunikatsiyasi elementlaridan foydalanish; reklama samaradorligini aniqlash *kunikmalariga ega bo’lishi;* boshqaruv mehnatini ilmiy tashkil etish; menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish; mehnat jamoalarida xodimlarni boshqarish; nizolarni hal etish; talab, taklif va bozor xajmini aniqlash *malakalariga ega bo’lishi kerak.*
4	**IX. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** ma’ruzalar; interfaol keys-stadilar; seminar; guruhlarda ishlash; individual loyilar; jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar; loyiha ishi bajarish; mustaqil ishlarni bajarish; taqdimot tayyorlash;

2-mavzu. Kompaniyaning operatsion strategiyasi

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida kompaniyaning operatsion strategiyasi. Operatson strategiyaning dolzarbligi. Servis strategiyasi. Servis jarayonlarining ishlab chiqrish jarayonlaridan farqi. Kompaniyaning operatsion strategiyasi va transformatsiyasi.

3-mavzu. SMK asosida opreatsion strategiyani amalga oshirish

Kompaniyada jarayonlarni Balanced Scorecard konsepsiyasi asosida boshqarishning mohiyati. Balanced Scorecard konsepsiyasining asosiy elementlari. Vaziyat taxlili. Resurlarni taqsimlash rejalashtirish (MRP). Strategiyani amalga oshirish. Kompaniya samaradorligi monitoringi. Uzluksiz takomillashuv. Biznes–jarayonlar takomillashuvi asosida boshqaruv tizimini yaratish, qo‘shimcha qiymat yarataish. Tashkiliy tuzilmani strategiyaga moslash va uzluksiz takomillashtirish. Biznes jarayonlar injiniringi.

4-mavzu. Yangi mahsulot va xizmatlarni loyihalashtirish

Yangi mahsulotlarni loyihalashtirish. Sifat funksiyalarini va ularga ta’sir etuvchi omillarni tahlil etish. Texnologik jarayonni tanlash. Jarayonni tanlashni rejalashtirishdan farqli tomonlari. Global mahsulotni loyihalashtirish va ishlab chiqarish. Global mahsulotni loyihalash strategiyasi.

5-mavzu. Sifatni boshqarish va benchmarking

ISO 9000 Xalqaro standartlari. ISO 9000:2000 standarti asosida kompaniyani baholash modeli. Faoliyat takomillashuvi modeli. Benchmarking. Etalonning asosiy xususiyatlari. Etalonning tayanch ko‘satkichlari. “Shest sigm” sifat boshqaruvi metodikasi. Iste’mol talablarini aniqlash. Sifatning joriy ko‘rsatkichlarini hisoblash (marshrut kartasi, 3 qadam). “Shest sigm” tizimi bo‘yicha biznes-jarayonlarni takomillashtirish (marshrut kartasi, 4a qadam)

6-mavzu. Rejalashtirish va prognozlash

Ishlab chiqarishni rejalashtirish uslubiyati. Rejalashtirish turlari. Prognozlashtirish va uning mohiyati. Prognozlashtirish metodlarini tanlash.

7-mavzu. Ishlab chiqarish quvvatlarini strategik rejalashtirish

Kompaniyalarda ishlab chiqarish quvvatlarini boshqarish. Ishlab chiqarish quvvatlariga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash. Xizmat ko‘rsatish korxonasini ishlash imkonyatlarini rejalashtirish. Ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida ishlab chiqarish quvvatlarini rejalashtirishdagi farqlar. Servis va sifatli xizmat ko‘rsatishni ta’minlash.

8-mavzu. Qiymatlar zanjirini boshqarish

Qiymatlar zanjirini boshqarishda o‘zaro bog‘liqlik. Ta’minotchi-iste’molchi-

ta'minotchi - zanjirini loyihalashtirish. Iste'molchiga yo'naltirilganlik. Ta'minot zanjirini takomillashuvi. "JIT- o'z vaqtida(tochno v srok) tizimi. JIT- logikasi. Unumdorlikni Yapon yondashuvi. JITni Shimoliyamerika varianti. Xizmat ko'rsatish sohasida JIT.

9-mavzu. Operasion menejmentda jarayonlarni boshqarish

Jarayonlarni boshqarish mazmuni. Bizness jarayonlarni reinjiniringi. Tashqi muhit bilan aloqa va uzluksiz takomillashuv jarayonlarini ta'minlash.

10-mavzu. Jarayonlarni tasvirlash

Kompaniyaning faoliyatini korporativ kodeksini loyixalashtirish. Korporativ standartlarni modellashtirish prinsiplari. Modelni ishlab chiqish tartibi. Jarayonlar kartasini ishlab chiqish.

11-mavzu. Operasiyalar va jarayonlarni takomillashuv tamoyillari

Biznes jarayonlarni takomillashuvi mazmuni. Takomillashuvga moyil jarayonlarni aniqlash. Yangi jarayonlarni loyihalashtirish va tatbiq etish. Jarayonlarni takomillashuvini ta'minlaydigan metodlar va instrumentariylar. Kayzen va tatbiq etish dolzarbligi. "Lean production" tatbiq etish bosqichlari va xorijiy tajribalar.

12-mavzu. Operasion konsalting

Operasion konsalting mazmuni va mohiyati. Operasion konsalting kachon kerak? Operasion konsultantlar qanday vazyatda kerak. Operasion konsalting jarayoni. Axborotlar tahlili va optimal qarorlar qabul qilish jarayonlari. To'lovlar va harajatlar tahlili.

VI. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar.

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Boshqaruv jarayonlarining predmeti va vazifalari
2. Kompaniyaning operatsion strategiyasi
3. SMK asosida opreatsion strategiyani amalga oshirish
4. Yangi mahsulot va xizmatlarni loyihalashtirish
5. Sifatni boshqarish va benchmarking
6. Rejalashtirish va prognozlash
7. Ishlab chiqarish quvvatlarini strategik rejalashtirish
8. Qiymatlar zanjirini boshqarish
9. Operasion menejmentda jarayonlarni boshqarish
10. Jarayonlarni tasvirlash
11. Operasiyalar va jarayonlarni takomillashuv tamoyillari
12. Operasion konsalting

Amaliy mashg'ulotlar multimediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada

bir akademik guruhga bitta o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol, interfaol usullar orqali o'tkazilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanishi maqsadga muvofiq.

VII. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash.
2. Sanoat korxonalarida kichik biznes bilan kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.
3. Sanoat tarmoqlarida kichik biznesni rivojlantirish yo'nalishlari.
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga innovatsion texnologiyalarni tadbiq etishni rag'batlantirish mexanizmini tashkil etish.
5. Ishlab chiqarish faoliyati Boshqaruv jarayonlari obyekti sifatida.
6. Ishlab chiqarishda operatsiyalarni boshqarish mohiyati.
7. Operatsiyalar tadqiqotlarni o'tkazish va matematik modellar.
8. Ishlab chiqarishni operativ boshqarish.
9. Yangi mahsulotni rejalashtirishni boshqarishni tashkil etish.
10. Zahiralarni boshqarish.
11. JIT- o'z vaqtida (tochno v srok) tizimi. JIT- logikasi.
12. Avtomatlashgan loyihalashtirish va ishlab chiqarishni boshqarishning avtomatlashgan tizimi (ICHBAT).
13. Sifat boshqaruvi va benchmarking.
14. Resurslarni rejalashtirish mohiyati.
15. ABC tahlili va mohiyati.
16. Kompaniyada jarayonlarni Balanced Scorecard konsepsiyasi asosida boshqarishning mohiyati.
17. Operatsion qiymat menejmenti mazmuni va mohiyati.
18. Sifatni boshqarishning Yapon modeli.
19. Jarayonlarni uzluksiz takomillashuvi tajribasi.
20. Zahiralarni boshqarishda operatsiyalar menejmenti va ularning tarmoqli modellari.
21. Operatsiyalarni boshqarishda innovatsiyadan foydalanish va uning samaradorligi.